



MA'NAVIYATNING KAMOLOTI

Mahmudova Muhabbat Pardayevna

Surxondaryo viloyati,

Jarqo'rg'on tumani

2-sonli umumta'lim maktabi

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Ajdodlarimiz farzand tarbiyasining negizi sifatida axloqiylik: niyat-so'z-ish birligini yaratishgan. Mazkur uchlik negizini keyinchalik lo'g'atimizga kirib kelgan "Vijdon" so'zi bilan ifodalash mumkin. Yaxshi fikr deganda insonlarga mehribon bo'lish muhtoj va xavf-xatar ostida qolganga ko'maklashishga shaylik, yovuzlikka qarshi, kishilar baxt-saodati uchun faol kurashishga shaylik, hamma bilan ahil va totuvlikda, o'z maslahatdosh birodarlari bilan do'stlik va hamkorlikda yashashga intilish ruhidagi niyatlar va fikrlar musoffoligi tushuniladi.

Ajdodlarimizning ko'hna tarbiyaviy tizimi hozirgi kunlarda biz to'qnashgan axloqiy, madaniy, jismoniy, ekologik muammolarni bartaraf qilish nuqtai-nazaridan bebahodir.

Jumladan, ayol kishiga hurmat, uni e'zozlash, ona sifatida qadrlash g'oyalari markaziy o'rinda turishi kerak. Bu g'oya yosh avlodga kundalik turmushda, yaxshi bolaning namunaviy siymosi orqali ijtimoiy tarbiyada izchil singdirib borilishi shart.

Aflotun fikriga ko'ra "Maktab-but-eng yetuk e'tiqod, har bir shaxs uchun shakllanish jarayonidir" deb aytgan. Ishq o'tida yonish, hamma narsani unitish emas, balki boshqalardan ibrat olib, o'zida yaxshi fazilatlarni shakllantirish hamdir. Yaxshi pokiza kiyinishga, me'yor darajasida o'ziga zeb berishga, uy-ro'zg'or ishlarini ozoda va pokiza olib borishga, axloq, odob borasida ham ko'zga tashlanishga harakat qiladi.

Mana shuning uchun oilada bola ma'naviyatini shakllantirishning asosiy muhitiga e'tibor beramiz.

1. Oilada mehr-muhabbat muhiti.

Bu tuyg'udan mahrum kishi o'z yaqinlarini, vatandoshlarini hurmat qilishga qodir bo'lmaydi, odamlarga yaxshilik qila olmaydi. Oilada mehr-muhabbat va samimiyat, oila a'zolarining bir-biriga e'tiborliligi va g'amxo'rliigi bolalar ruhiyatiga kuchli ta'sir qiladi, bolaning his-tuyg'ulari namoyon bo'lishi va uning ma'naviy ehtiyojlari shakllanishi uchun ken imkoniyatlar beradi.

2. Samimiylik muhiti.

Ota-onalar hayotining muhim ahamiyatli holatlarida bolalarga yolg'on so'zlamasligi kerak, bola har qanday yolg'on, aldash, soxtakorlikni favqulotda o'tkirlik bilan tez sezadi. Hech qachon "Buni bilishga yoshlik qilasan" yoki "Sen buni baribir tushunmaysan" demaslik kerak.

3. Tushuntirish. So'z bilan ta'sir ko'rsatish.



So'z tarbiyalanuvchining fikrida va qalbida iz qoldirishi kerak. Buning uchun esa so'zlarning ma'nolarini tushunib yetishni o'rgatish, kitob bilan oshno qilish kerak. O'smirlar mulohaza qilishni yoqtirishadi, biroq ba'zi ota-onalar, o'qituvchilar ularning fikrini eshitmaydi. Ularning fikr bildirishga kichiklik qilishini ta'kidlab, to'xtatib qo'yishadi. Biroq, ayni mana shu mulohazalar orqali o'smirlar ma'naviy-axloqiy tushunchalarni anglab oladi.

4. Bolaning ko'z o'ngida mehnat bilan shug'ullanish.

Bola kattalarning ishini muntazam ravishda kuzatadi, o'zi ham amalga oshirishga harakat qiladi, so'ngra yordamchi sifatida mehnat jarayoniga kirisha boshlaydi va nihoyat, ishni mustaqil bajarishga kirishadi.

5. Bola hayotida dabdaba, qashshoqlik, alkogol singari holatlarni istisno qilish zarur.

6. Bola axloqsiz odamlar bilan muloqotga kirishishdan ehtiyot qilish kerak.

Taqlid qilish bilimlar va tajribani egallab olishning muhim usuli hisoblanadi. Bola faqat 7 yoshga to'lgandan keyin o'z axloqiy asoslarini shakllantiradi va atrofdagi odamlarning hulq-atvori va qilmishiga baho berishi mumkin. Shu sababli Bolani sevadigan va unga yaxshilik tilaydigan katta yoshdagilar o'zlarining axloqsiz xatti-harakatlari bilan bolaga namuna bo'lmaslik uchun o'zlarining har bir qadamini qat'iy nazorat qilishi zarur.

7. Ota-onalar oilaviy munosabatlarning sofligiga e'tiborni qaratishlari zarur.

Xulosa sifatida shuni aytishim mumkinki, oila bir qancha funksiyalarni bajaradigan ijtimoiy maktab hisoblanadi. Bu maktabda muayyan bir mafkura doirasida mustahkamlangan g'oyalar, qadriyatlar tizimi asosida dunyoqarashni shakllantirish bo'limi muhim ahamiyat kasb etadi.